
Farg'onada elektromobillar ishlab chiqarish loyihasi yakuniy bosqichga kirdi

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Farg'ona shahridagi o'rganishlari davomida mexanika zavodi hududida joylashgan kichik sanoat zonasidagi "Central Asia Motors" korxonasida bo'ldi. Viloyat rahbariga viloyat prokurori Baxtiyor Ismoilov hamrohlik qildi.

Korxonada 2021-2022 yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ko'zda tutilgan elektromobillar uchun ehtiyot qismlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirish hamda yengil va yuk elektromobillarini ishlab chiqarish loyihasi bo'yicha qilingan ishlar ko'zdan kechirildi. 5 million dollar tadbirkorning o'z mablag'lari, 5 million dollar bank krediti hamda 40 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya hisobiga jami 50 million dollar sarflanishi ko'zda tutilgan ushbu loyiha to'liq yakunlansa, 350 dan ortiq yangi ish o'rni yaratiladi. Yillik 10 ming elektromobily ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi va uning 40 foizi eksportga yo'naltiriladi.

Shuningdek, elektromobillar uchun kuzov, zaryad stantsiyasi, akkumulyator ehtiyot qismlari mahalliyashtiriladi.

2022-09-27 16:13:47